



ARAB DAVLATINI VUJUDGA KELISHI VA IJTIMOIIY HAYOTI

Nabiev Shohnazar

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix (mamlakatlar
va yo'nalishlari bo'yicha 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10575453>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-January 2024 yil
Ma'qullandi: 23-January 2024 yil
Nashr qilindi: 27-January 2024 yil

KEY WORDS

Arablar, al-arab, G'arbiy Osiyo,
Shimoliy Afrika, Misr.

ABSTRACT

Arablar, al-arab — G'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlarida yashovchi xalqlar guruhi. Umumiy soni 199 mln. kishi (1992). Arablar asosan Afrika va Osiyo mamlakatlarida: Misr, Sudan, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash, Livan, Suriya, Iroq, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Yaman va boshqa yerlarda yashay-di, bu mamlakatlar aholisining qariyb 80% ini tashkil qiladi. Katta yevrope-oid irqiga mansub. Arab tilida suzla-shadi. A. ko'pchiligi sunniylar. Bundan tashqari, arablar ichida musulmon dinining bir qancha mazhablari mavjud; shialar — Iroq, Yaman, Suriya va Livanda; ibo-diylar — Shimoliy Afrikada; zaydiya va ismoiliylar — Shimoliy va Sharqiy Iroqda, Livanning tog'li tumanlarida yashaydilar. Misr, Livan, Suriya va Iordaniyada yashovchi arablarning bir qismi xristian diniga e'tiqod qiladi.

Asl vatani Arabiston yarim orol Miloddan avvalgi 1-ming yillikda va milodning dastlabki yillarida Arablar Suriya, Iroq, Shimoliy Afrika yerlariga kelib joylashgan. Miloddan avvalgi 1-ming yillikda dastlabki arab davlatlari — Palmira (Tadmor), Nabateya va Lihyon vujudga kelgan. 5-asrda bir qancha arab davlatlari (G'asson va Laxm; Shimoliy Arabistonda) paydo buladi. 6 — 7-asrlarda ayrim arab elatlari tashkil topdi. 7-asrda Arab xalifaligi barpo etildi. A.ning xalifalik hududidagi boshqa xalqlar bilan arala-shib ketishlari natijasida yangi elatlar va davlatlar (Falastin, Suriya, Livan (Lubnon), Iroq, Misr va Shimoliy Afrika davlatlari) yuzaga keldi. O'rta Osiyo arablari — O'rta Osiyo davlatlarida yashovchi, o'zlarini arab deb yurituvchi etnik guruh. Ajdodlari 7 — 14-asrlar davomida kelib o'rnashib qolgan. O'zbek, turkman va tojik millatining tarkibiga kirgan. O'rta Osiyo arablari asosiy qismi O'zbekistonning Buxoro, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida, shuningdek Farg'ona vodiysi shimoli-sharqiy qismida yashaydi. 2 guruhga bulinadi: shayboniy va sanoniy. O'rta Osiyo arablari o'zlarining qadimgi madani-yatlari, urf-odatlarining ayrim belgilarini saqlab qolganlar. Arab tili ikkinchi til sifatida ayrim qishloqlarda hozirgacha qo'llanib kelinadi. Bularning shevalarida yerlik xalqlar tilining ta'siri juda kuchli. O'rta Osiyo arablari xo'jaligida chorvachilik muhim o'rin tutadi. Suvli yerlarda yashaydigan A. dehqonchilik qiladi. O'zbekistonda A. nomi bilan bog'liq ko'plab joy nomlari mavjud.

Janubi-G'arbiy Osiyoda Joylashgan ulkan Arabiston yarim oroli qadimdan arab qabilalarining maskani bo'lib kelgan. Bu yarim orolning maydoni shu qadar kattaki, Evropaning tahminan to'rtidan bir qismiga to'g'ri keladi. Arabistonning asosiy hududi – quruq cho'llar, suvsiz sahrolar va chala sahrolar quruq issiq, yomg'ir esa kamdan-kam yog'adi. Arab erining faqat yarim orolning Janubi va Janubi-g'arbida joylashgan qismigina dehqonchilikka yaroqli edi. Aynan shu yerlarda qadimdan o'troq arablar yashagan. Quduqlar va irmoqlardan ular suv ichganlar, murakkab sug'orish inshootlari qurishgan, ekin ekishgan, mevali bog'lari bo'lgan. Arab dehqonlari arpa, hurmo, uzum, mevali daraxtlar, shakarqamish, paxta yetishtirgan. Dehqonlar qadimdan metallardan ishlangan turli mehnat qurollari, jumladan omochdan foydalanishgan.

Mil. I-ming yillik o'rtalarida Arabiston yarim orolining janubida eng qadimgi davlatlardan biri tashkil topgan. Unda hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Mahalliy ustalar ayniqsa teri oshlash va qurol-aslaha tayyorlashda dong taratishgan. Arabistonning janubida oltin qazib chiqarilgan, ladan va boshqa hushbo'y smolalar to'plashgan. Bu mahsulotlar bilan mahalliy savdogarlar uzoq Hindiston va Habashiston bilan savdo qilishgan.¹

Yarim orol aholisining aksariyatini ko'chmanchi chorvadorlar tashkil qilgan. Ularni badaviylar, ya'ni "ko'chmanchilar" deb atashgan. Ular o'z podalari bilan dag'al o't va yantoq bilan qoplangan cho'l bo'ylab ko'chib yurishgan. Budaviylar tuya, ot va qo'y boqishgan. Tuya badaviy uchun eng asosiy hayvon bo'lgan. Cho'l kishilari uning suti va go'shtini tanovul qilishgan, tuya junidan to'qilgan issiq kiyimlar kiyishgan. Uylari tuya junidan to'qilgan kigizlar bilan berkitilgan o'tovlardan iborat bo'lgan. Tuya terisidan poyabzal, egar-jabduq va aslahalar tayyorlangan. Ko'pgina kasalliklarga eng yaxshi davo tuya yog'i bo'lgan. Badaviylar oilalari va ko'ch-ko'ronlari bilan tuyalarda bir manzildan boshqasiga ko'chib yurishgan. Mana shu tuyalarga minib urushqoq dushmanlari bilan jang qilishgan. Chidamli va sadoqatli hayvonlar cho'lda o'zlari yo'l topganlar, uzoq vaqt yemishsiz va suvsiz yura olishgan, hech qachon egalarini kulfatda yolg'iz qoldirishmagan, uni qum bo'ronlaridan pana qilishgan va sovuqdan isitishgan.

Makka hokimlari shahar turli mamlakatlarning savdogarlariga o'qishi uchun qo'llaridan kelgan barcha harakatni qilganlar. Makka mahallalarga bo'lingan. Ularning har birining o'z bozori, mahalliy ma'budlar sajdagohi va bir qancha karvonsaroylari bo'lgan. Bu karvonsaroylarda sayyoh savdogarlar to'xtab o'tishgan, unga o'z mahsulotlari bilan ko'chmanchi qabila boshliqlari ham kelishgan. Karvonsaroylar turli kishilarni birlashtiruvchi markazlar bo'lgan. Hozirgi odamlar o'lchovi bilan qaralsa bu mehmonxonalar albatta uncha qulay bo'lmagan, lekin o'sha davrlarda har bir yo'lovchini Hudoning tuhfasini sifatida kutib olib, unga eng yaxshi sharoitlar yaratib berishga – qornini to'ydirish va suvga qondirish, dam olishiga imkon berish va uning xizmatkorlari, yuk ortilgan hayvonlari va tovarlari holidan habar olishga harakat qilishgan. Biroq arablarni Makkaga nafaqat savdo-sotiqqa jalb etgan. Bu yerda shaharning markazida ularning eng qadimgi ibodatxonasi – Kayba joylashgan. U kub shaklidagi inshoot bo'lgan. Shuning uchun nomi "Kub" deb tarjima qilinadi. Ibodatxonda arablar uchun eng muqaddas bo'lgan "Qora tosh" saqlangan.

¹ Belyayev Ye. A., Arabi, islam i arabskiy xalifat v rannee sredneveko-ve, 2-ye izd., 1966; Narodi Sredney Azii i Kazaxstana, ch. 2, M., 1963; Volin S. A., K istorii sredneaziatskix arabov, v sb.: Trudi IVAN, v. 36, M.-L., 1941.

U ibodathona devoriga o'rnatilgan. Rivoyatga ko'ra, "Qora tosh" bir paytlar qordan ham oppoq bo'lgan. Olloh uni dastlabki inson Odamatoga tuhfa qilgan. Odamoto toshni kumush gardishga o'rnatgan va ularning ustiga sajdagoh qurgan. Biroq shundan beri odamlar qilgan va qilayotgan gunohlari tufayli tosh qorayib ketgan. Tosh qarshisida muqaddas buloq Zamzam joylashgan. Uning suvi shifobaxsh. Rivoyatlarga ko'ra, ibodatxona devorlariga qachonlardir turli arab qabilalarining 360 ma'budi tasviri tushirilgan. Shuning uchun Kayba arablar uchun umumij sajda qilish markazi bo'lgan. Bu yerga Arabistonning barcha dindor aholisi ziyorat uchun kelgan.

Quraysh qabilasi zodagonlari qo'lida ibodatxona kalitlari bo'lgan.

Zodagonlar shuningdek, sajdagoh yonida o'tkaziladigan marosimni ham boshqarishgan. Vaqt o'tishi bilan Kaybaga sig'inish makkaliklarning faol sayohat qilishlari va ularning shaharlarida har yili o'tkaziladigan yarmarkaning shuhrati tufayli butun Arabiston yarim oroliga tarqalgan. Makka asta-sekin atrofida barcha arab qabilalari birlashishi mumkin bo'lgan shaharga aylangan. Faqat bu birlashuvga rahbarlik qilishi mumkin bo'lgan kishini topish kerak edi, holos. Bunday kishi mil. 570 y. Abdulloh ("Allohning quli" degani) ismli kambag'allashgan quraysh oilasida tug'ildi. Abdullohning urug'i Hoshim deb atalib u juda qadimiy bo'lgan. Qadimdan hoshimiylar (urug' a'zolari shunday atalgan) Ka'ba kalitlarini saqlovchilar bo'lgan. Ular ibodathonaga yaqin joydagi mahallada yashaganlar. Shuning uchun tug'ilgan bola, uni Muhammad deb atashgan, Ka'baga sajda qilish an'analari tarbiyalangan. Muhammad 6 yoshida etim qolgan. Arablar odatiga ko'ra, u haqida kambag'al qarindoshlari g'amho'rlik qilishgan. Muhammad yoshligida cho'pon, so'ngra savdo karvonlarini kuzatib boruvchi hizmatchi bo'lgan. Keyinchalik boy beva Hadichaga uylangan, u hotinning savdo ishlarini yuritgan.

Madinaga barcha tomonlardan kelgan Muhammadning izdoshlari to'plangan. Bu yerda ibodat qilish uchun dastlabki masjid qurilgan, birinchi musulmonlar jamoasi urug' yoki qabila belgisiga qarab emas, balki har bir inson, halq va yo'l boshchilar – muhojirlar, payg'ambarning eng yaqin safdoshlari huquqlarini o'zaro tan olish asosida tashkil topgan. Shuning uchun ilk musulmonlar orasida yakka hudolikni tan olgan barcha dinlarning tarafdorlari bo'lgan, Qur'onda esa din erkinligi haqida "Dinda majbur qilish yo'q" degan oyat nozil qilingan.

Musulmon jamoasi Muhammadga etkazilgan ilohiy vahijlarda bayon etilgan, so'ngra Qur'onda mustahkamlangan talablar asosida yashagan. Musulmonning eng asosiy vazifalaridan biri zakot – mulk solig'i to'lash bo'lgan, uni har bir musulmon jamoaning kambag'al a'zolariga to'lash lozim edi. Boshqa bir majburiyatga ko'ra islom dinini qabul qilganlar albatta hayr-ehson qilishlari kerak bo'lgan. Uchinchi majburiyatga ko'ra, har bir musulmon kuniga besh mahal namoz o'qishi shart edi. Namoz hamma musulmonlar tomonidan bir vaqtda, kunning ma'lum bir soatida, baland minoradan mulla yoki muazzin azon vaqti bo'lgani haqida ularni habardor qilishi bilan o'qilgan.

Muhammad Makkaga qaytishga intilgan. 622 y.dan boshlab makkaliklar va Pajg'ambar izdoshlari o'rtasida sakkiz yil davomida qattiq kurash ketgan. 630 y. uzoq muzokaralardan so'ng Muhammad makkaliklar bilan bitim tuzgach, o'zaro kurash yakun topgan. Bu bitimga ko'ra Makka aholisi Muhammadning diniy va siyosiy hokimiyatini tan olish va uning ta'limotini qabul qilish majburiyatini olishgan. Makkaliklar uchun Makka yangi dinning bosh markazi, Kayba esa – islomning asosiy ibodathonasi ekanligi e'tirof etildi.²

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 2.Belyayev Ye. A., Arabi, islam i arabskiy xalifat v rannee sredneveko-ve, 2-ye izd., 1966; Narodi Sredney Azii i Kazaxstana, ch. 2, M., 1963; Volin S. A., K istorii sredneaziatskix arabov, v sb.: Trudi IVAN, v. 36, M.-L., 1941.
- 3.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

